O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXORO VILOYATI HOKIMINING

QARORI

200118. Buxoro viloyati, Buxoro shahri, I.Mo’minov ko’chasi 1-uy. Tel.:(365) 224-34-85, Faks: 223-05-95 e-mail: info@buxoro.uz, buxoro@exat.uz

2023 - yil 8 - noyabr 436-2-0-Q/23 Buxoro viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 6-noyabrdagi PQ-357-sonli “Yonish va portlash xavfi yuqori bo‘lgan kimyoviy moddalar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 6-noyabrdagi PQ-357-sonli “Yonish va portlash xavfi yuqori bo‘lgan kimyoviy moddalar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 6-noyabrdagi PQ-357-sonli “Yonish va portlash xavfi yuqori bo‘lgan kimyoviy moddalar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

Favqulodda vaziyatlar vazirligiga yonish va portlash xavfi yuqori bo‘lgan kimyoviy moddalarni (mahsulotlarni) *(keyingi o‘rinlarda – kimyoviy moddalar (mahsulotlar))* saqlash, tashish, ulardan foydalanish va yo‘q qilish sohasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish, shuningdek, ushbu sohada belgilangan talablargi rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish vazifasi yuklanganligi;

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Radiatsion, kimyoviy va tibbiybiologik muhofaza boshqarmasi va uning hududiy bo‘linmalari tuzilmasida vazirlikning umumiy shtatlar soni doirasida yonish va portlash xavfi yuqori bo‘lgan kimyoviy moddalar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘limi hamda bo‘linmalari *(keyingi o‘rinlarda – bo‘lim (bo‘linmalar))* tashkil etilganligi;

quyidagilar bo‘limning (bo‘linmalarning) asosiy vazifalari etib belgilanganligi:

vazirlik, idora va boshqa tashkilotlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlari tomonidan kimyoviy moddalarni (mahsulotlarni) saqlash, tashish, ulardan foydalanish va yo‘q qilishda belgilangan xavfsizlik talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

respublika hududiga olib kirilgan, respublika hududida joylashgan obyektlarda

saqlanayotgan hamda respublika hududi orqali tranzit tashilayotgan kimyoviy moddalar (mahsulotlar) to‘g‘risida yagona markazlashgan ma’lumotlar bazasini yaratish va doimiy yuritib borish;

kimyoviy moddalarni (mahsulotlarni) saqlash, tashish, ulardan foydalanish va yo‘q qilishda yuzaga keladigan texnogen avariyalar va favqulodda vaziyatlarning oldini olish, shuningdek, oqibatlarini bartaraf etish ishlarini muvofiqlashtirish;

kimyoviy moddalarni (mahsulotlarni) saqlash, tashish, ulardan foydalanish va yo‘q qilish sohasida manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlik qilish;

2024-yil 1-yanvardan boshlab:

respublika hududiga olib kirilgan hamda belgilangan tartibda bojxona rasmiylashtiruvidan o‘tkazilgan kimyoviy moddalar (mahsulotlar) va ularni olib kiruvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar Bojxona qo‘mitasining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali Favqulodda vaziyatlar vazirligiga real vaqt rejimida taqdim etib borilishi;

kimyoviy moddalar (mahsulotlar) faqat favqulodda vaziyatlarning (yong‘inlarning) oldini olish va sanoat xavfsizligi talablariga javob beradigan omborlarda saqlanishiga ruxsat berilishini nazarda tutuvchi tartib o‘rnatilishi belgilanganligi;

kimyoviy moddalarni (mahsulotlarni) saqlash, tashish, ulardan foydalanish va yo‘q qilishda xavfsizlik talablariga rioya etilishini ta’minlashga:

kimyoviy moddalar (mahsulotlar) omborga joylashtirilguniga qadar – tashuvchi;

kimyoviy moddalar (mahsulotlar) omborga joylashtirilganda – ombor egasi;

kimyoviy moddalardan (mahsulotlardan) foydalanish va yo‘q qilishda –ulardan foydalanuvchi subyektlar javobgar hisoblanishi belgilab qo‘yilganligi;

2024-yil 1-yanvardan boshlab O‘zbekiston Respublikasi hududiga kimyoviy moddalarni (mahsulotlarni) olib kirish, tashish, saqlash, ulardan foydalanish va yo‘q qilishda belgilangan talablarga rioya etilishini doimiy nazorat qilishning quyidagi tartibi joriy etilishi:

a) Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Bojxona qo‘mitasi, Ichki ishlar vazirligi va Tog‘-kon, geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi kimyoviy moddalarni (mahsulotlarni) saqlash, tashish, ulardan foydalanish va yo‘q qilishda mazkur qarorga ilova sxemaga muvofiq o‘zaro hamkorlik qilishi;

b) Bojxona qo‘mitasi kimyoviy moddalarni (mahsulotlarni) bojxona rasmiylashtiruvidan o‘tkazishi hamda bir kun muddatda Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali kimyoviy moddalar (mahsulotlar) turi, miqdori va ularni olib kiruvchi sub’ekt to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Favqulodda vaziyatlar vazirligining Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish va boshqarish milliy markaziga *(keyingi o‘rinlarda – Milliy markaz)* taqdim etilishi;

v) kimyoviy moddalarni (mahsulotlarni) olib kiruvchi sub’ektlar ushbu moddalar (mahsulotlar) bojxona rasmiylashtiruvidan o‘tkazilgan kunning o‘zida axborot platformasi orqali kimyoviy moddalarning (mahsulotlarning) saqlanadigan joyi (ombor) haqidagi ma’lumotlarni Milliy markazga taqdim etilishi, bunda, Milliy markazga taqdim etilgan ma’lumotlar to‘g‘riligi va ishonchliligi uchun javobgarlik kimyoviy moddalarni (mahsulotlarni) olib kiruvchi sub’ektning rahbari zimmasiga yuklanadi;

g) Milliy markaz kimyoviy moddalar (mahsulotlar) bilan bog‘liq har bir harakat to‘g‘risidagi ma’lumotlarni doimiy ravishda yangilab borilishi;

d) Favqulodda vaziyatlar vazirligi:

joyiga chiqqan holda kimyoviy moddalarni (mahsulotlarni) saqlash, ulardan foydalanish

va yo‘q qilishda belgilangan talablarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishi, shu jumladan ularning omborda to‘g‘ri joylashtirilganligi, yemiruvchi yoki boshqacha ta’sirga chidamli tarzda saqlanayotganligi, shuningdek, bir-biriga o‘zaro ta’sir qilmasligi va xavfli oqibatlarni keltirib chiruvchi reaksiyaga kirishmasligini ta’minlovchi sharoitlar yaratilganligini o‘rganishi;

axborot platformasiga kiritilgan ma’lumotlarni monitoring qilinishi;

kimyoviy moddalarni (mahsulotlarni) tegishli manzilga tashish davomida yuzaga keladigan texnogen avariyalar va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish choralarini ko‘rishi;

kimyoviy moddalarni (mahsulotlarni) saqlash, tashish, ulardan foydalanish va yo‘q qilish sohasidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslarni belgilangan tartibda javobgarlikka tortish choralarini ko‘rishi;

manfaatdor vazirlik, idora va boshqa tashkilotlarga kimyoviy moddalarni (mahsulotlarni) saqlash uchun obyektning (omborning) yong‘in va sanoat xavfsizligi talablariga muvofiqligi yuzasidan xulosa berishi;

e) Tog‘-kon, geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi:

qonunchilikda belgilangan tartibda kimyoviy moddalardan (mahsulotlardan) foydalanish ustidan nazoratni amalga oshirilishi;

kimyoviy moddalarni (mahsulotlarni) saqlash uchun obyektning (omborning) sanoat xavfsizligi talablariga muvofiqligi yuzasidan Favqulodda vaziyatlar vazirligiga xulosa taqdim etilishi;

j) Ichki ishlar vazirligi:

kimyoviy moddalar (mahsulotlar) tegishli manzilga xavfsiz tarzda yetkazilishi (tashilishi) uchun qonunchilikda belgilangan tartibda kuzatuvni amalga oshirilishi;

kimyoviy moddalar (mahsulotlar) bilan bog‘liq texnogen avariyalar va favqulodda vaziyatlarda jamoat tartibini saqlash choralarini ko‘rishi.

Bunda, kimyoviy moddalarni (mahsulotlarni) tashish, saqlash, ulardan foydalanish va yo‘q qilishda belgilangan talablarga rioya etilishini nazorat qilish respublikada ishlab chiqarilgan kimyoviy moddalarga (mahsulotlarga) nisbatan ham tatbiq etilishi.

bo‘lim (bo‘linmalar) hamda kimyoviy moddalar (mahsulotlar) bilan bog‘liq texnogen avariyalar va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga jalb etiladigan radiatsion, kimyoviy va tibbiy-biologik muhofaza guruhlarini maxsus texnikalar va zarur asbob-anjomlar bilan ta’minlash Favqulodda vaziyatlar vazirligiga har yili ajratiladigan budjet mablag‘lari doirasida, shuningdek, vazirlikning budjetdan tashqari mablag‘lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilishi belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (A.Abduxalikov) manfaatdor tashkilot va idoralar, tumanlar va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda ikki oy muddatda:

kimyoviy moddalar (mahsulotlar) saqlanadigan yoki foydalaniladigan obyektlarni to‘liq xatlovdan o‘tkazsin;

ushbu moddalarni (mahsulotlarni) saqlashda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tezkor chora-tadbirlarni belgilasin va amalga oshirsin;

har yili aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha asosiy tadbirlar rejalari asosida kimyoviy moddalar (mahsulotlar) bilan bog‘liq faoliyatni amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub’ektlari, mahalliy davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlari uchun kimyoviy moddalarni (mahsulotlarni) saqlash, tashish, ulardan foydalanish va ularni yo‘q

qilish tadbirlarini xavfsiz tashkil etish bo‘yicha ko‘rgazmali seminar va o‘quv mashqlarini o‘tkazib borsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilish bo'yicha shaxsiy javobgarlik favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig‘i A.Abduxalikovga yuklatilsin.

5. Mazkur qaror ijrosining nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Buxoro viloyati hokimi **B.K.Zaripov**